O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ANDIJON VILOYATI ANDIJON SHAHAR HOKIMINING
QARORI

710000 Andijon shahri Ergash Ashurov ko’chasi 17-uy. Tel: (74) 228-31-35

2023 - yil 17 - iyul 126-1-29-Q/23 Andijon shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2023-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-iyuldagi 418-F-son Farmoyishi ijrosini Vazirlik tizimida rahbarlik va ijro uchun qabul qilish to‘g‘risida”gi 270-son farmoyishi to‘g‘risida.

Meteorologlarning taxlillariga ko‘ra so‘nggi ikki yilda dunyo bo‘yicha havo xarorati keskin o‘zgarib, global isish bilan bog‘lik iqlim o‘zgarishi jarayonlari respublikamizga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. 2023-yil yoz mavsumining o‘tgan davri mobaynida mamlakatimizda havo xaroratining xar yillik me’yorlarga nisbatan yuqoriligi sababli sovitish jixozlaridan foydalanishga bo‘lgan extiyoj va elektr energiyasi iste’molining keskin oshishi, shuningdek, aholi punktlari va yirik sanoat korxonalari hududlarining qurigan o‘simliklardan tozalanmasligi yong‘inlar sonining keskin ko‘payishiga olib kelmoqda.

O‘zbekistan Respublikasi Ekologiya, atrof-muxitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya hizmati agentligining prognoz ma’lumotiga ko‘ra respublikamizda joriy yil yoz mavsumida yuqori havo xarorati saklanib qoladi.

Yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan ushbu davrda respublika ijro etuvchi xokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar, jamoatchilik va axolining barcha qatlamlarini yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarga keng jalb qilish zarurati tug‘ilmoqda.

Shu sababli shahar hududida yong‘in xavfsizligining qo‘shimcha talablarini belgilash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2023-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-iyuldagi 418-F-son Farmoyishi ijrosini Vazirlik tizimida rahbarlik va ijro uchun qabul qilish to‘g‘risida”gi 270-son farmoyishini bo‘lim tizimida rahbarlik va ijro uchun qabul qilish maqsadida;

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2023-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-iyuldagi 418-F-son Farmoyishi ijrosini Vazirlik tizimida rahbarlik va ijro uchun qabul qilish to‘g‘risida”gi 270-son farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-iyuldagi 418-F-son Farmoyishi bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Energetika vazirligi va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil **10-iyul – 10-avgust kunlari** respublika hududida **"Yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha Dolzarb 30 kun"** (keyingi o‘rinlarda – "Dolzarb 30 kun") tadbirini joriy etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilgani;

"Dolzarb 30 kun" tadbirini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi, respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlangani;

"Dolzarb 30 kun" tadbiri quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab olishi belgilangani:

birinchi, yozgi dam olish va sog‘lomlashtirilish mavsumida oromgohlar, sanatoriylar hamda boshqa dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

ikkinchi, o‘ta muhim, toifalangan va iqtisodiyot obektlari, yonish-portlash xavfi yuqori hamda favqulodda vaziyat yuz berish darajasi yuqori bo‘lgan boshqa obektlar, shuningdek, odamlar ko‘p yig‘iladigan joylarda

yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlash;

uchinchi, 2023/2024 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlari o‘tkaziladigan obektlarning yong‘inga qarshi holatini talab darajasiga keltirish;

to‘rtinchi, o‘rmon fondi obektlarini yong‘indan qo‘riqlash va uy-joy fondi obektlarining yong‘in xavfsizligini ta’minlash;

Andijon shahar xokimligi va korxona, tashkilot, muassasa raxbarlariga:

uch kun muddatda “Dolzarb 30 kun” tadbirini joriy etish bo‘yicha mahalliy komissiyalar tarkibini hamda yong‘inlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini qaror asosida tasdiqlash;

"Dolzarb 30 kun" tadbiri davrida davlat boshqaruvi organlari, mulkchilik shaklidan qatiy nazar barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoatchilik yong‘inlarning oldini olish ishlariga keng jalb etilishini ta’minlash;

jamoat transportlari, odamlar ko‘p yig‘iladigan joylar va avtomobil yo‘llarining katta chorrahalaridagi bilbordlar, elektron tablo va axborotni yetkazuvchi boshqa texnik vositalarga "Dolzarb 30 kun" tadbiri joriy etilganligi va yong‘in xavfsizligi bo‘yicha materiallarni joylashtirilishini ta’minlash;

har o‘n kunda amalga oshirilayotgan ishlarning tanqidiy muhokama qilinishi, unda tegishli rahbarlar hisobotlarining eshitilishi, yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni belgilash va amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlash;

"Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida rejalashtirilgan tadbirlarning ijrosini tizimli nazoratga olish hamda mavjud muammolarni shoshilinch bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishini ta’minlash vazifalari yuklatilganligi;

Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi xizmati, Elektr tarmoqlari korxonasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi, Andijon shahar hokimligining matbuot xizmati, "Andijonshahargaz” gaz ta’minoti bo‘limi, Andijon viloyati

O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi Andijon shahar bo‘limi, "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJga taalluqliligicha vazifa va topshiriqlar yuklatilganligi;

Favqulodda vaziyatlar vazirligiga "Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida 15-avgustga qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish vazifasi yuklatilganligi **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

3. "Dolzarb 30 kun" tadbiri davrida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi **1-ilovaga** muvofiq, "Dolzarb 30 kun" tadbirini joriy etish bo‘yicha shahar komissiyasi shtabi va vazifalari **2-ilovaga**, amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobot shakli **3-ilovaga** muvofiq **tasdiqlansin.**

4. "Dolzarb 30 kun" tadbiri davrida mahalliy komissiya tarkibi tomonidan amaliy ishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilsin:

birinchi, yozgi dam olish va sog‘lomlashtirilish mavsumida yong‘in xavfsizligini ta’minlash;

ikkinchi, iqtisodiyot obektlari, yonish-portlash xavfi yuqori hamda favqulodda vaziyat yuz berish darajasi yuqori bo‘lgan boshqa obektlar, shuningdek, odamlar ko‘p yig‘iladigan joylarda yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlash;

uchinchi, 2023/2024 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlari o‘tkaziladigan obektlarning yong‘inga qarshi holatini talab darajasiga keltirish;

to‘rtinchi, o‘rmon fondi obektlarini yong‘indan qo‘riqlash;

beshinchi, uy-joy fondi obektlarining yong‘in xavfsizligini ta’minlash.

5. **Shahar xokimining o‘rinbosari F.Ergashev, FVB boshlig‘i I.Azizovga**:

uch kun muddatda "Dolzarb 30 kun" tadbirini joriy etish bo‘yicha shahar hokimining **qarori ijrosini ta’minlash** bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining tasdiqlanishi tashkillashtirilsin;

2023-yil 10-iyul – 10-avgust kunlari shaharning barcha hududlarida

"Dolzarb 30 kun" tadbirining ko‘tarinki ruxda va samarali tartibda o‘tkazilishi ta’minlansin;

Elektr tarmoqlari korxonasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi hamda tegishli bo‘lim va idoralar bilan birgalikda mazkur Qarorning 4-bandi bilan belgilangan yo‘nalishlarda yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan natijador profilaktika tadbirlari amalga oshirilsin;

"Dolzarb 30 kun" tadbiri davrida barcha davlat organlarining, mulkchilik shaklidan qat’i nazar tashkilotlar, jamoatchilikning, aholining barcha qatlamlarining yong‘inlarning oldini olish ishlariga keng jalb etilishi tashkillashtirilsin;

aholi yashash joylarida aholi bilan yong‘in xavfsizligi qoidalarini tushuntirish, ogohlantirish va yo‘l-yo‘riq berishdan iborat profilaktika tadbirlari kuchaytirilsin va bunda, birinchi galda, sovitish konditsionerlari va shu kabi boshqa maishiy elektr jihozlardan foydalanishda yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilish, shuningdek, uy (kvartira)larda umumiy elektr tarqatish qutilaridagi nominal to'k kuchidan yuqori bo‘lgan himoya avtomatlaridan va qo‘lbola saqlagichlardan foydalanish holatlariga barham berishga asosiy e’tibor qaratilsin;

jamoat transporti, aholi ko‘p yig‘iladigan joylar va avtomobil yo‘llarining katta chorrahalaridagi bilbordlar, elektron tablo va axborotni aholiga yetkazish vazifasini bajaruvchi boshqa texnik vositalarda "Dolzarb 30 kun" tadbiri joriy etilganligi haqida materiallarning joylashtirilishi ta’minlansin;

idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar barcha tashkilot (obekt)larda hamda yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari yoki ko‘chma yong‘in o‘chirish texnikasiga ega idoraviy yong‘indan saqlash xizmatidan uzoq masofada joylashgan aholi punktlarida Vazirlar Mahkamasining "Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2013-yil 28-martdagi 89-son qaroriga muvofiq ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish, shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘ngilli bo‘linmalarning tarkibini yangilash choralari ko‘rilsin;

yangidan tashkil etilayotgan aholi yashash punktlarida shaharsozlik norma va qoidalari asosida yong‘inga qarshi suv ta’minotining bajarilishi ustidan qattiq nazorat o‘rnatilsin;

suvsiz hududlari bor mahallalarda shahar obodonlashtirish xizmati tasarrufidagi suv tashish texnikasi (vodovoz)larning kunu-tun navbatchiligini tashkil etish choralari ko‘rilsin;

tegishli xizmatlarni jalb etgan holda nosoz holga kelgan gidrantlar va yong‘inga qarshi suv hovuzlarini ta’mirlash, shuningdek, aholi punktlari va ochiq maydonlarni yonishga moyil bo‘lgan begona o‘tlar, qurigan o‘simliklar va chiqindilardan tozalash choralari ko‘rilsin;

suvsiz hududlarda sun’iy yong‘inga qarshi suv ta’minoti manbalarini tashkil etilishiga va mavjud tabiiy suv manbalaridan yong‘in-qutqaruv texnikalari bilan suv olish uchun pirslarning barpo etilishiga erishilsin;

har o‘n kunda amalga oshirilayotgan ishlarning mahalliy komissiyalar tomonidan tanqidiy muhokama qilinishi, unda tegishli rahbarlar hisobotlarining eshitilishi, yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarni belgilash va amaliyotga tatbiq etish tashkillashtirilsin;

Ommaviy axborot vositalari orqali "Dolzarb 30 kun" tadbiri joriy etilganligi haqida, shuningdek, yong‘inlarning oldini olish tadbirlari va yong‘in xavfsizligi qoidalarini televideniya kanallarida maxsus teleko‘rsatuvlar orqali yoritilishi, radioeshittirishlar uyushtirilishi, internet jahon axborot tarmog‘i orqali hamda rasmiy Telegram kanallarda materiallar berilishi, davra suhbatlarining doimiy asosda uyushtirilishi doirasida keng qamrovli targ‘ibot ishlari tashkillashtirilsin.

Elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan bozor va savdo majmualarini elektr energiyasi bilan ta’minlovchi transformatorlar, elektr taqsimlash qutilari, iste’molchilarga tortilgan sim va kabellarning iste’mol quvvatiga muvofiqligi va bu sohadagi qoidalar talablarga javob berishi, kabel-sim mahsulotlarining sinovdan o‘tkazilishi, uzoq muddatdan buyon ishlatilayotganligi evaziga izolyatsiya qatlami shikastlanganlarini

almashtirish choralari ko‘rilsin;

“Andijonshahargaz” gaz ta’minoti bo‘limi tomonidan bozorlar va savdo majmualarida taom tayyorlash maqsadida maishiy gaz ballonlaridan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik, ularga umumovqatlanish shoxobchalari uchun tabiiy gaz manbalari va tizimlarining kiritilishi ta’qiqlansin;

“Markaziy dexqon bozori” AJ, “Yangi bozor dehqon bozori” AJ, “Soy bo‘yi dehqon bozori” MChJ xamda **“Jahon savdo kompleksi” MChJ, “Andijon Xunarmandchilik savdo kompleksi” MChJ** tomonidan bozorlar hududidagi o‘zboshimchalik bilan joylashtirilgan yoki noqonuniy qurilgan alohida imorat (savdo shoxobcha)larini shaharsozlik norma va qoidalariga muvofiqlashtirilishi ta’minlansin;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi tomonidan takroriy ekinga tayyorlash maydonlarini yoqqanlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan keskin choralar ko‘rilsin;

O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan o‘rmon fondi obektlarida yong‘inlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishida vakolat doirasida yaqindan amaliy yordam ko‘rsatilsin;

Jamoat transporti harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar, jumladan elektrobuslar bilan yangilashda ularni zamonaviy yong‘in o‘chirish uskunalari bilan ta’minlash choralari ko‘rilsin.

Favqulodda vaziyatlar bo‘limi tomonidan o‘rnatilgan tartibda o‘tkazilgan tekshirish (o‘rganish)larda aniqlangan yong‘in chiqish xavfi yuqori bo‘lgan qoidabuzarliklarni shoshilinch ravishda tuzatilishi ta’minlansin;

o‘ta muhim va toifalangan obektlardagi yong‘in xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha uzoq muddatdan buyon hal etilmayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etilishi ta’minlansin;

o‘ta muhim va toifalangan obektlardagi xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan yoki nosoz yong‘in xavfsizligini ta’minlash va yong‘in o‘chirish texnika vositalari (texnikalarni)ni yangilash choralari ko‘rilsin;

yangidan tashkil etilayotgan o‘ta muhim davlat ahamiyatiga molik, yirik ijtimoiy-madaniy, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obektlarida Vazirlar Mahkamasining "Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2013-yil 28-martdagi 89-son qaroriga muvofiq yong‘in-texnik komissiyalarni tashkil etish va belgilangan tartibda faoliyatini yo‘lga qo‘yish choralari ko‘rilsin;

faoliyat ko‘rsatayotgan yong‘in-texnik komissiyalari tarkibini, kadrlar tarkibidagi o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda, yangilash choralari ko‘rilsin;

obektlardagi ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati (drujina yoki komanda)larining salohiyatidan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilsin;

o‘ta muhim va toifalangan obektlar hududini muntazam ravishda yonishga moyil bo‘lgan begona o‘tlar va qurigan o‘simliklardan tozalanishi tashkillashtirilsin;

yong‘indan xavfli mavsumda o‘ta muhim va toifalangan obektlarning yong‘inga qarshi holatini tunu-kun kuzatish maqsadida o‘rnatilgan tartibda dozor xizmatining yo‘lga qo‘yilishi ta’minlansin.

"Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida rejalashtirilgan tadbirlar ijrosining tizimli nazoratga olinishi hamda mavjud muammolarni shoshilinch bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarning ko‘rilishi ta’minlansin;

"Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida 12-avgustga qadar shahar Hokimligiga umumlashtirilgan yakuniy ma’lumot kiritilsin.

11. Mazkur qaror talablarining bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari F.Ergashev va Favqulodda vaziyatlar shahar bo‘limi boshlig‘i I.Azizovlar zimmasiga yuklatilsin.

Andijon shahar hokimi **G.Abduraxmanov**